

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”  
Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус  
таълим вазирлиги

---

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi  
5A340603– “Moliya, pul muomalasi va kredit” magistratura  
mutaxassisligi uchun**

**Tashkent – 2003**

Tuzuvchilar: dots. S. Norqobilov  
k.o'q. K.Navro'zova  
Taqrizchilar: k.o'q. N. Ernazarov  
i.f.d., prof. A.Q. Qodirov

"Banklarda buxgalteriya hisobi" fani etakchi mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, unda banklarda buxgalteriya hisobi asoslari, buxgalteriya hisobining vazifalari, Markaziy bank va tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasi, bank balansi, banklarda hisob va hujjatlar aylanishini tashkil qilinishi, mijozlarga hisobraqamlar ochish bilan bog'liq mavzular, shuningdek banklar bajaradigan barcha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va rasmiylashtirilishi yoritib beriladi.

Предмет "Бухгалтерский учет в банках" один из ведущих спец предметов в котором даются темы где раскрываются основы бухгалтерского учета в банках, задачи бухгалтерского учета, планы счетов бухгалтерского учета Центробанка и коммерческих банков, баланс банка и порядок его составления, организация учета и документооборота в банках, наряду с этим даются порядок учета и оформления всех операций совершаемых банком.

The subject "Accounting in banks" is one of the leading special subjects. It consists of studying different items belong to finding out bases of accounting in banks, tasks of accounting, plan of accounting of the Central Bank and other commercial banks, balance sheet of bank and the other of it's composing, organization of accounting and document circulation in banks, and in addition to these tasks this subject studies the order of accounting and the forming of all operations made by bank.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **"Banklarda buxgalteriya hisobi" fanini o'qitishning maqsadi va vazifasi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16 avgust 2001 yildagi 343-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan ta'lim standartiga asosan magistraturaning "Audit" yo'nalishida "Banklarda buxgalteriya hisobi" fani o'qitiladi.

"Banklarda buxgalteriya hisobi" fanini o'qitishning maqsadi "Biznes va boshqaruv" sohasi bo'yicha tayyorlanadigan barcha magistratura yo'nalishlardagi kadrlarga banklarda bajariladigan turli operatsiyalarni yangi hisobvaraqlari rejasi bo'yicha hisob va rasmiylashtirishni jahon andozalari asosida bajarishni o'rgatishdir. Buxgalteriya hisobining yangi hisobvaraqlar rejasi asosida puxta o'rganish orqaligina fanning asosiy maqsadi bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha zarur buxgalteriya yozuvlarini o'tkazish tarjibasini, hujjatlar bilan operatsiyalarni rasmiylashtirish, shuningdek buxgalteriya balansining tahlili va bank moliya hisobotlarini tuzish kabilarni o'zlashtira oladilar.

Mazkur fanni o'rgatish vazifasi quyidagilar:

- yangi hisob varaqalar rejasini o'rganish;
- bank operatsiyalarini hisobi va rasmiylashtirishni o'rganish;
- bank balansini tuzish;
- bankning boshqa hisobotlarini tuzish va tahlil qilish.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar**

- talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
- o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlash;
- fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba buxgalteriya hisobida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilish.

### **O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi**

"Banklarda buxgalteriya hisobi" fani "Buxgalteriya hisobi", "Pul, kredit va banklar", "Bank ishi", "Bank faoliyatining tahlili", "Bank statistikasi" va "Bank auditi" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

### **Fanni o'rgatishdagi yangi texnologiyalar**

- ma'ruzalar matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni kafedra tomonidan oldindan tayyorlab guruh talabalariga tarqatish, bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod etadi;
- test savollarini tuzish va ularga javob berish shaklida joriy va oraliq nazoratlarni uyushtirish;
- "tayanch" iboralarni ishlab chiqib, talabalardan ularni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash;
- amaliy mashg'ulotlarda banklarda buxgalteriya hisobini yuritishga oid "Ish o'yinlarini" qo'llash.

### **Fanni o'qitishning semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

"Banklarda buxgalteriya hisobi" ni o'qitish namunaviy o'quv rejasining 1-semestrlarida bajariladi.

Uslubiy ko'rsatmalar:

- fan mavzulari bo'yicha echiladigan masalalar to'plamidan foydalanish;
- har bir mavzu bo'yicha jadval, chizma va grafiklar tayyorlab, darsda ko'rgazma shaklida foydalanish va boshqalar.

### **Umumiy va o'quv ishlari bo'yicha soatlar hajmi**

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 120 soat hajmida vaqt ajratilgan. Ularning 40 soati ma'ruza, 40 soati amaliy mashg'ulotlar, 40 soati mustaqil ta'limdir.

## **2. FAN DASTURI**

### **Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Bank balansi**

*Banklar buxgalteriya hisobining mohiyati va uni tashkil etishning ahamiyati; banklar hisob-operatsion apparatining tuzilishi; buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari, "Bankning operatsion kuni" dasturi; bank balansi va uning tuzilishi; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejalari va ularning tavsifi.*

### **Bank hujjatlashtirish, hujjatlar aylanishi va bank nazorati**

*Bank hujjatlarining mazmuni, ahamiyati, turlari va ularning tavsifi; banklarda hujjatlar aylanishini tashkil qilish; buxgalteriya hujjatlarini saqlash tartibi; ichki bank nazorati, uning turlari va ahamiyati.*

### **Asosiy va qo'shimcha daftarlar bo'yicha sintetik va analitik hisob**

*Sintetik va analitik hisoblarining mazmuni; analitik hisob (Qo'shimcha daftar) va uning tavsifi; sintetik hisob (Asosiy daftar) va uning tavsifi; asosiy va qo'shimcha daftarlarni tekshirish.*

### **Naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarining rasmiylashtirishi va hisobi**

*Naqd pulsiz hisob-kitoblar va ularni tashkil etish asoslari; O'zbekiston respublikasi banklarida mijozlarning depozit (hisob-kitob, byudjet) hisob varaqlarini ochish tartibi; to'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob - kitoblarining rasmiylashtirilishi va hisobga olinishi; to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar ularning rasmiylashtirilishi va hisobi; akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi; inkasso topshiriqlari, ularning mazmuni, hisobi va rasmiylashtirilishi; cheklar bo'yicha hisob-kitoblarning rasmiylashtirilishi va hisobi; plastik kartochkalari bo'yicha operatsiyalarining tashkil etilishi; O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari.*

### **Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi**

*Qimmatli qog'ozlar va ularning turlari; tijorat banklari tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar hisobi; bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hisobi; qimmatli qog'ozlar bo'yicha bank operatsiyalarining tavsifi.*

### **Banklararo hisob-kitoblarning hisobi va rasmiylashtirilishi**

*Banklararo hisob-kitoblarning mohiyati va ularning rivojlanish tarixi; banklararo hisob-kitoblarning tashkil etilishi, banklarning vakillik hisob varaqlari; banklararo hisob-kitoblarning elektron to'lov tizimi orqali yuritilishi; hisob markazlari ishining tashkil etilishi; banklarning viloyat ichidagi va viloyatlararo hisob-kitoblari.*

## **Qisqa muddatli ssuda operatsiyalarining rasmiylashtirilishining va hisobi**

*Qisqa muddatli kreditlash operatsiyalari hisobining tashkil etilishi; ssuda hisob varaqalarini ochish tartibi; kredit liniyalarini ochib va ochmasdan alohida ssuda hisob varaqalaridan kredit berish va qaytarish operatsiyalarining hisobi; boshqa kredit turlari bo'yicha operatsiyalar hisobining xususiyatlari; muddatli va muddati o'tgan ssudalar bo'yicha foizlar hisoblash va undirish tartibi.*

## **Kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish**

*Banklarda kassa operatsiyalarini tashkil qilish, bank kassalari turlari; kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorat; chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorat; kechki kassalarning faoliyati; pul tushumlarini inkassatsiya qilish tartibi.*

## **Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha operatsiyalarning hisobi va rasmiylashtirilishi**

*Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va uzoq muddatli kreditlash bo'yicha bank operatsiyalari; bu operatsiyalar hisobining tashkil etilishi; kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi; kapital qurilishdagi bajarilgan ishlar uchun hisob-kitoblarning xususiyatlari; uzoq muddatli kreditlash bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi.*

## **Davlat byudjetining kassaviy ijrosi bo'yicha operatsiyalarni rasmiylashtirish va hisobga olish**

*Davlat byudjetini kassaviy ijro etishning mohiyati, byudjet operatsiyalari bo'yicha hisob raqamlar tizimi; respublika byudjetining daromadlari bo'yicha operatsiyalarning kassaviy ijro etilishi, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi; davlat byudjetining xarajatlar bo'yicha kassaviy bajarilishi, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi; mahalliy byudjetning kassaviy ijrosi bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi.*

## **Bank ichki operatsiyalari. Daromad va xarajatlarining rasmiylashtirilishi va hisobi**

*Bank asosiy vositalarining hisobi, tartibi; materiallar hisobi; ularning kirim qilish va ishlatish tartibi; kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi; bankning operatsion va boshqa daromadlari, ularning rasmiylashtirilishi va hisobi; bankning operatsion va boshqa xarajatlari, ularning rasmiylashtirilishi va hisobi; boshqaruv apparatini ushlab turish xarajatlarining hisobi; bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi.*

## **Banklarning buxgalteriya hisobotlari**

*Bank buxgalteriya hisobotlarining ahamiyati va turlari; joriy buxgalteriya hisobotining mazmuni; yillik hisobotning mazmuni, uni tuzish va tasdiqlash tartibi.*

### **3. AMALIY MASHG'ULOTLARINING NAMUNAVIY MAVZUSI**

#### **Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Bank balansi**

Tijorat banklari buxgalteriya hisobi hisob varaqalari rejasini o'rganish\*; Markaziy bank buxgalteriya hisobining hisob varaqalari rejasini o'rganish; tijorat banklarining kundalik balansi, mazmuni va tuzish tartibi. Tijorat Banki kundalik balanslarini tuzish bo'yicha masalalar ishlash.

#### **Asosiy va qo'shimcha daftarlar bo'yicha sintetik va analitik hisob**

Sintetik va analitik hisoblarining mazmuni; analitik hisob (Qo'shimcha daftar) va uning tavsifi\*; sintetik hisob (Asosiy daftar) va uning tavsifi; asosiy va qo'shimcha daftarlarni tekshirish, xatolarni tuzatish yo'llari. Situatsion masalalar echish.

#### **Naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarining rasmiylashtirilishi va hisobi**

O'zbekiston respublikasi banklarida mijozlarning depozit (hisob-kitob, byudjet) hisob varaqalarini ochish tartibi\*; to'lovlarni ketma-ketligi, to'lov topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning rasmiylashtirilishi va hisobga olinishi; to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, ularning rasmiylashtirilishi va hisobi; akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi; inkasso topshiriqlari, ularning mazmuni, hisobi va rasmiylashtirilishi\*; cheklar bo'yicha hisob-kitoblarning rasmiylashtirilishi va hisobi; hisob operatsiyalarining boshqa shakllari; O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari; naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish bo'yicha muammolar. Naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha masalalar ishlash.

#### **Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi**

Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar hisobi\*; bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hisobi; qimmatli qog'ozlar bo'yicha bank operatsiyalarining tavsifi. tijorat banki amalihti bilan tanishish.

#### **Banklararo hisob-kitoblarning hisobi va rasmiylash-tirilishi**

Banklararo hisob-kitoblarning mohiyati va ularning rivojlanish tarixi; banklararo hisob-kitoblarning tashkil etilishi, banklarning vakillik hisob varaqalari\*; elektron to'lov tizimi, uning mohiyati va ahamiyati; hisob markazlarida banklararo hisob-kitoblarning tashkil etilishi va hisobi. Situatsion masalalar echish.

#### **Qisqa muddatli ssuda operatsiyalarining rasmiylashtirilishi va hisobi**

Qisqa muddatli kreditlash operatsiyalari hisobining tashkil etilishi; ssuda operatsiyalari bo'yicha sintetik va analitik hisobning yuritilishi\*; ssuda hisob varaqalarini ochish tartibi; kredit berish va qaytarish operatsiyalarining hisobi; muddatli va muddati o'tgan ssudalar bo'yicha foizlar hisoblash va undirish tartibi. Qisqa muddatli kreditlash operatsiyalari hisobi bo'yicha masalalar echish.

## **Kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish**

Kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorat; chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorat\*; kechki kassalarning faoliyati; pul tushumlarini inkassatsiya qilish tartibi; inkassatsiya qilingan pul tushumlarini rasmiylashtirish va hisobga olish. Kassa operatsiyalarini hisobi bo'yicha masalalar echish.

## **Kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha operatsiyalarning hisobi va rasmiylashtirilishi**

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va uzoq muddatli kreditlash bo'yicha bank operatsiyalari\*; kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi; uzoq muddatli kreditlash bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi. Bank ichki operatsiyalari bo'yicha masalalar ishlash.

## **Davlat byudjetining kassaviy ijrosi bo'yicha operatsiyalarni rasmiylashtirish va hisobga olish**

Respublika byudjetining daromadlari bo'yicha operatsiyalarning kassaviy ijro etilishi, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi\*; davlat byudjetining xarajatlar bo'yicha kassaviy bajarilishi, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi; mahalliy byudjetning kassaviy ijrosi bo'yicha operatsiyalarning rasmiylashtirilishi va hisobi. Amaliy materiallar asosida hujjatlar to'ldirish.

## **Bank ichki operatsiyalari. Daromad va xarajatlarning rasmiylashtirilishi va hisobi**

Bank asosiy vositalarining hisobi\*; amortizatsiya hisoblash tartibi; materiallar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi; bankning daromadlari va xarajatlari, ularni hisobga olish va rasmiylashtirish; bank moliyaviy faoliyati natijasini hisobga olish. Situatsion masalalar echish.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR**

**Internet saytlari:** [www.bizbook.ru](http://www.bizbook.ru), [www.chtivo.ru](http://www.chtivo.ru).

Audio-video jihozlar. - Mavzuga bag'ishlangan video kassetalar.

**Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:**

- Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Bank balansimavzusi bo'yicha 2ta slayd;
- Naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarining rasmiylashtirilishi va hisobi mavzusi bo'yicha 4ta slayd;
- Banklararo hisob-kitoblarning hisobi va rasmiylashtirilishi mavzusi bo'yicha 2ta slayd.

"Bank mijoz" kompyuter dasturi.

## 5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB) - 35%;
- oraliq baholash (OB) - 35%;
- yakuniy baholash (YaB) - 30%.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaBda tinglovchi "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan (yozma ish) usulini o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 - "a'lo" - 51,6 - 60,0 ball;
- 71 - 85 - "yaxshi" - 42,6 - 51,0 ball;
- 55 - 70 - "qoniqarli" - 33,0 - 42,0 ball.

## 6. ADABIYO TLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 1995 y. 21 dekabr.
2. "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi"gi Qonuni. 1996 y. 25 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va respublika hamda mahalliy byudjetlarga to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 1998 y. fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari 1995y 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha. - T.: Adolat, 2000.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank buxgalteriya hisobining hisob varaqalar rejasi. 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining buxgalteriya hisobining hisob varaqalar rejasi. 1999.
7. O'zbekiston Respublikasida "Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish haqida"gi 60-sonli Nizom. 2002 y. 15 yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisob varaqalari haqidagi 1-sonli yo'riqnoma. 2001 y. 06 oktyabr.
9. O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi 61-sonli yo'riqnoma. 1997 y. 5 sentyabr.
10. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. -T.: Moliya, 2000.
11. Abdullaeva Sh.Z, Navruzova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi asoslari. O'quv qo'llanma. - T., TMI, 2001.



12. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Ucheb. pos. dlya VUZov pod red. prof. A.N. Tovasheva, M.: Yuniti-Dana, - 2001.
13. Banki i bankovskoe delo / Pod. red. I.T. Balabanova - S-Pb.: Piter, 2001.
14. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika -M.: PRIOR, 2000.
15. Dengi, Kredit, Banki. Tsennie bumagi. Praktikum: Ucheb. pos. dlya vuzov - Pod red. E.F. Jukova. - M.: YuNITI-DANA, 2001.
16. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm sovremennix usloviyax. Monografiya. - T.: TGEU, 2000.
17. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel-iyun. 2001.
18. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. - M.: Finansi i statistika, 2001.
19. Kozlova E.P, Babchenko T.N. Sbornik korrespondentsiy schyotov buxgalterskiy ucheta po novomu schyotnomu planu. - M.: Buxgalterkiy ucheta, 2001.
20. Murugova I.A., Navruzova K.N. Osnovi buxgalterskogo ucheta v bankax. - T.: TMI, 2001.
21. Porfenov K.G. Bankovskiy ucheta i operatsionnaya texnika v kommercheskix banka. Izd-3-e pererab. - M.: ZAO Buxgalterskiy byulleten, 2001.
22. Savchuk V.P., Primekko S.I., Velichko E.G. Analiz, razborka investitsionnix proektov: Ucheb. pos. -Kiev: Elga, 1999.
23. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalom -M: VO Perspektiva, 1998.
24. Sheremet A.D. Finansovi analiz v komercheskom banke. - M.: Finansi i statistika, 2000.
25. Internet saytlari:

- [www.banking.com](http://www.banking.com) - mintaqaviy banklar, assotsiatsiyalar va nashriyotlar bo'yicha bank sanoati resurslari direktorligi.
- [www.banking.com/aba](http://www.banking.com/aba) - Amerika banklari assotsiatsiyasi.
- [www.state.ct.us/dob](http://www.state.ct.us/dob) - konnektikut banklari va kredit birlashmalari, kredit muassasalari va qo'riqlash sanoatini boshqaradi.
- [www.arraydev.com/commerce/JIBC](http://www.arraydev.com/commerce/JIBC) - internet banking va kommertsiya jurnali.
- [www.bankingtech.com](http://www.bankingtech.com) - bank texnologiyalari.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 2002 y. 30 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron to'lov tizimi bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish haqidagi 1010-sonli Nizom. 2001. 15 fevral.
3. Banklarni tugatish to'g'risidagi 240-sonli Nizom. 1996. 20 iyul.
4. Depozitorlar milliy axborot bazasi haqidagi 263-sonli Nizom. 1996. 3 oktyabr.
5. Tijorat banklari buxgalteriya hisobvaraqaalari bo'yicha foiz hisoblash tartibi haqidagi 145-sonli Nizom. 1996. 20 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini bajarish tartibi to'g'risidagi 326-sonli Nizom. 1997. 15 mart.
7. Hisob-kitob markazlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha 400-sonli yo'riqnoma. 1998. 6 iyul.
8. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish tartibi. 1996. 20 sentyabr.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
10. Abdullaeva Sh. Z. Bank ishi. O'quv qo'llanma. - T.: TMI, 2000.
11. Gryaznova A. Finansovo-kreditniy entsiklopedicheskiy slovar. -M.: Finansi i statistika, 2002.
12. Jarkovskaya E. Bankovskoe delo. Kurs lektsiy. Omega-L. 2002.
13. Mullajonov F. Bank tizimi. - T.: O'zbekiston, 2001.
14. Ostrovskaya O. Bankovskoe delo. Tolkoviy slovar. - M.: Gelios ARV, 2001.
15. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Ekonomika. - M., 2002.